

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir davomida tashkil etilgan Xayriya loyihasi doirasidagi milliy ko'rgazmasi

BAYONNOMASI

2026-yil 10-fevral

ATB

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir davomida Xayriya loyihasi doirasidagi milliy ko'rgazmasi tashkil etildi. Ushbu tadbirning asosiy maqsadi buyuk ajdodlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomlarini munosib nishonlash, ularning boy adabiy va ma'naviy merosini yoshlar ongiga singdirish, milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish hamda talabalarda vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'naviy mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlash bo'lib, tadbir universitet jamoasi, professor-o'qituvchilar hamda talabalar ishtirokida ko'tarinki ruhda tashkil etildi.



Dastlab so'zga chiqqan mas'ullar buyuk mutafakkirlarning ilm-fan, adabiyot va davlat boshqaruvidagi o'rni haqida atroflicha ma'lumot berdilar. Ularning hayoti va ijodi bugungi yoshlar uchun ibrat maktabi ekani alohida ta'kidlandi.



Tadbir doirasida xayriya loyihasi asosida milliylik ruhini aks ettiruvchi ko'rgazma tashkil etildi. Mazkur ko'rgazma universitet hududida maxsus ajratilgan maydonda o'tkazilib, milliy an'ana va qadriyatlarimizni namoyon etuvchi ko'plab namunalardan iborat bo'ldi.

Ko'rgazmada:

- O'zbek milliy kiyimlari -atlas va adrasdan tikilgan liboslar, milliy do'ppilar, kashtado'zlik namunalari;
- Milliy taomlar- palov, somsa, manti va boshqa an'anaviy taomlar;
- Tandir nonlari va turli xil non mahsulotlari;
- Milliy shirinliklar hamda pishiriqlar keng namoyish etildi.



Har bir ko'rgazma burchagida mahsulotlarning kelib chiqishi, tayyorlanish jarayoni hamda milliy an'analardagi o'rni haqida qisqacha ma'lumotlar berildi. Talabalar tomonidan milliy liboslar taqdimoti ham tashkil etilib, o'zbek xalqining kiyinish madaniyati haqida tushuntirishlar berildi.

Xayriya loyihasi doirasida ko'rgazmadan tushgan mablag'lar ezgu maqsadlar yo'lida yo'naltirilishi belgilandi. Tadbir yoshlar qalbida buyuk ajdodlarimizga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg'ularini yanada mustahkamladi. Milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni targ'ib etish va kelajak avlodga yetkazish borasida muhim ma'naviy ahamiyat kasb etdi.

Tadbir yuqori saviyada, tashkiliy jihatdan puxta hamda ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Yoshlar masalalari va MMIB
birinchi prorektor:

N.Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova